



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)



**Ro'yxatdan
o'tgan
18103**

2019-yilning 1-iyul holatiga 18103 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,1 foizga o'sgan

**Faoliyat
ko'rsatayotgan
17729**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2682 ta (17,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17729 tani tashkil etgan.

**Yangi tashkil
etilganlar
2909**

2019-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 2909 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1140 taga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)



2231




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 14,1%

2019-yilning 1-iyul holatiga 18103 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,1 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,9 % savdo, 13,9 % sanoat, 11,1 % qurilish, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa hamda 27,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (4694 ta) savdo, (2525 ta) sanoat, (2010 ta) qurilish, (1297 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1276 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (754 ta) tashish va saqlash, (315 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (230 ta) axborot va aloqa hamda (5002 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17229 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2682 ta (17,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlari

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Termiz shahri (3764 ta), Denov (2049 ta), Jarqo'rg'on (1345 ta), Termiz (1220 ta) va Sho'rchi (1148 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Oltinsoy (681 ta), Muzrabot (786 ta) hamda Boysun (851 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyun oylarida 2909 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1140 taga ko'pdir.



2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

35,5 %



Sanoat

23,0 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,0 %



Qurilish

12,9 %



Tashish va saqlash

2,6 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

8,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2 %



Axborot va aloqa

1,1 %



Boshqa turlari

7,9 %



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1033 ta), sanoat (669 ta), qurilish (374 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (256 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan.

Eng kam esa axborot va aloqa (33 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (35 ta) hamda tashish va saqlash (77 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyun oylari



Savdo



1033

Tashish va saqlash



77

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



205

Qurilish



374

Sanoat




669

Axborot va aloqa



33

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



35

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



256


Boshqa turlari



227

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (567 ta), Denov (397 ta), Sho'rchi (239 ta) va Termiz (236 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha, Oltinsoy (103 ta), Muzrabot (113 ta), Boysun (115 ta) hamda Sariosiyo (122 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2017-2019-yillarning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda



Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan
tijorat korxonalar va
tashkilotlar soni 14220 tani
tashkil qildi




Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar



2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 266 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 169 taga yoki 274,2 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Afg'oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Xindiston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


1-iyul holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

266



O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %




Afg'oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Xindiston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 87 tasi qo'shma, 179 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahrida 121 ta (jamidagi ulushi 45,5 %), Termiz tumanida 31 ta (11,7 %) va Uzun tumanida 18 tani (6,7 %) tashkil etgan.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Boysun 2 ta (0,6 %), Oltinsoy 4 ta (1,5 %), Qumqo'rg'on 6 ta (2,3 %), hamda Sherobod 8 ta (3,0 %) tumanlarida tashkil etgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar









1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 92 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 taga ko'paygan.

Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 68 ta, Tojikiston Respublikasi – 5 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi - 3 tadan, Gretsiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Gruziya Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi hamda Niderlandiya Qirolligi – 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 27 ta savdo, 26 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 21 ta sanoat, 7 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4 ta qurilish, 1 ta sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1 ta tashish va saqlash va 5 ta boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.






Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda



2019-yil 1-iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14106 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 21,7 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida 2825 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1241 taga ko'proqdir.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi

• Eng katta ulushi

•Termiz shahri
23,0 %

•Denov
11,7 %

•Jarqo'rg'on
7,6 %

•Termiz
7,5 %

•Sho'rchi
6,4 %

•Qumqo'rg'on
5,9 %

•Sherobod
5,6 %

• Eng kichik ulushi

•Qiziriq
5,3 %

•Uzun
5,1 %

•Angor
5,0 %

•Boysun
4,6 %


•Sariosiyo
4,7 %

•Muzrabot
4,2 %

•Oltinsoy
3,1%

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14106 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4617 ta (32,7 %) – savdo, 2450 ta (17,4 %) - sanoat, 1979 ta (14,0 %) - qurilish, 1242 ta (8,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1207 ta (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 726 ta (5,1 %) - tashish va saqlash, 247 ta (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 221 ta (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1417 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

9.0




Sanoat

23.6



Qurilish

13.2




Savdo

36.6



Tashish va saqlash

2.7



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7.3



Axborot va aloqa

1.2



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1.2




Boshqa turlari

5.2



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1033 ta, sanoat 668 ta, qurilish 373 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 255 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 33 ta, axborot va aloqa 33 ta hamda tashish va saqlashda 76 ta tashkil etilgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda





Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (536 ta), Denov tumani (390 ta), Sho'rchi tumani (233 ta) va Termiz tumani (232 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Oltinsoy (101 ta), Muzrabot (108 ta) hamda Boysun (112 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda


(1-iyul holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,3 % yoki 312 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,1 % yoki 270 tasi sanoat, 24,1 % yoki 240 tasi savdo, 9,7 % yoki 97 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 11 tasi qurilish, 1,1 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 4,8 % yoki 43 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Surxondaryo viloyati statistik
regisrlarni yuritish bo'limi.**

Tel.:71-230-85-90